

## TURLI DINLARNING MUQADDAS RAMZLARI

**Sotvoldiyeva Ma'rifatxon**

**Muhammad Rahim qizi**

*TDSHU 4-kurs talabasi*

e-mail [sotvoldiyevamarifatxon@gmail.com](mailto:sotvoldiyevamarifatxon@gmail.com)

Telefon: +998958900419

*Ushbu maqolada insoniyat tarixida muhim o'rin tutgan diniy ramzlarning kelib chiqishi, ma'nosi va ahamiyati yoritilgan. Asosiy e'tibor uch asosiy diniy tizim — Islom, Xristianlik va Buddaviylik ramzlariga qaratilgan. Islomdagi yarim oy va yulduz ramzining qadimiy ildizlari, ularning Usmonli imperiyasi davrida keng tarqalishi va bugungi kunda islomiylik timsoli sifatida tan olinishi tahlil qilinadi. Xristianlikdagi xoch va baliq ramzlarining paydo bo'lish sabablari, ularning ilk nasroniylar hayotidagi o'rni va ruhiy mazmuni ochib berilgan. Buddaviylikdagi sakkizta muqaddas ramz — soyabon, juft baliq, lotus, oltin g'ildirak va boshqalar — ma'rifat, ozodlik va poklik g'oyalari bilan bog'liq holda izohlanadi.*

*Maqolada ramzlarning umumiy falsafiy mohiyati — nur, yangilanish, najot va ma'naviy yuksalish g'oyalarini ifodalashi ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, turli dinlardagi ramzlar tashqi shakli bilan farqlansa-da, ularning ichki ma'nosi insoniyatni ezgulik va ruhiy komillikka chorlaydi.*

**Kalit so'zlar:** ramz, yarim oy va yulduz, xoch, baliq, lotus, g'ildirak, din, ma'naviyat, falsafa, Islom dini, Usmonlilar, Nasroniylik, Buddizm, falsafa, Nepal, Hindiston, Budda, ikonagrafiya.<sup>1</sup>

Insoniyat tarixida dinlar madaniyat, e'tiqod va dunyoqarashning ajralmas qismi bo'lib kelgan. Har bir xalq va din o'zining ichki ma'naviy mazmunini ifodalovchi maxsus timsollarga ega. Ular nafaqat estetik yoki bezak ahamiyatiga, balki chuqur falsafiy va diniy ma'noga ham egadir. Shu jihatdan, yarim oy va yulduz, xoch, lotus, g'ildirak kabi belgilar insoniyat madaniy merosida o'chmas iz qoldirgan.

Birlashgan yarim oy va yulduzning tasviri vaqti-vaqti bilan turli tarixiy manbalarda, asosan, Usmonli imperiyasining muhim ramzi va Islom ramzi sifatida ishlatiladi. Miloddan avvalgi 300-yilda Vizantiya yunon mustamlakalaridan birida birinchi marta joriy qilingan, ammo u qisqa vaqt ichida Vizantiyani o'z qirolligiga birlashtirgandan so'ng, Pont qiroli Mitridat VI Evatorning qirollik ramzi sifatida mashhur bo'ldi. 5-asrda bu belgi Fors Sosoniylar imperiyasi tomonidan tangalarda zarb qilingan. Bu ramz 7-asrda musulmonlar Forsni zabt etganidan keyin sosoniylar qulashigacha 400 yildan ortiq vaqt davomida Yaqin Sharqda imperiyani ifodalagan. Sosoniylar zabt etilishiga qaramay, xalifalikning dastlabki yillarida tangalardagi belgi bir xil saqlanib qolgan.

Gerbning ikkala elementi Quyosh va Oy yoki Oy va Venera (Tong yulduzi) ni ifodalovchi Qadimgi Sharq ikonografiyasida uzoq tarixga ega ekanligi ma'lum. Tutilish paytida u Venera yoki Quyoshni ifodalaydi degan fikr bor.

Ushbu ikki ramzning kombinatsiyasi o'rta asrlarning oxirlarida va erta zamonaviy geraldikada kamdan-kam uchraydi. U Usmonli imperiyasi va ayrim yoki uning bo'linmalarining bayrog'i va milliy ramzida aks etganligi sababli ko'proq mashhur bo'ldi. 1844 yilda qizil fonda oq yarim yulduzli Usmonli bayrog'i kichik o'zgarishlar bilan Turkiyaning bugungi bayrog'idir. Usmonli imperiyasining boshqa sobiq qaram davlatlari, jumladan, Liviya, Tunis, Malayziya, Jazoir, undan tashqari O'zbekiston va boshqa davlatlar bayrog'ida ushbu belgidan foydalanadilar. Yulduz va yarim oy 20-asr oxirida "islomning ramzi" sifatida o'z maqomiga ega bo'ldi. Ammo nasroniylikda Isoning xochga mixlanishini ifodalovchi xochdan farqli o'laroq, yulduz va yarim oy o'rtasida Islom tushunchasi bilan mustahkam aloqasi yo'q. Yarim oy o'yning fazasini, yangilanishini va turli madaniyatlarda yangi boshlanishni anglatadi. Islomda bu Ramazon oyining boshlanishini bildiruvchi hal qiluvchi ma'noga ega. Dastlab uning Islomga bevosita aloqasi bo'lmasa ham, yarim oy mashhur bo'lib, ko'pincha yulduz bilan Islom gerbi sifatida ko'rinardi. Usmonli imperiyasi uni keng tarqalgan islom ramziga aylantirdi.

Xristianlikning an'anaviy ramzlari juda xilma-xildir. Biroq, bu belgilar 2 guruhga bo'linadi; asl nasroniy ramzlari va dastlab boshqa dinlardan olingan yoki yangi e'tiqod tomonidan o'zgartirilgan boshqa ma'nolarga ega bo'lgan timsollar. Xristianlikning asl ramzi xoch emas, balki Masihning monogrammasi edi (yunon orfografiyasining Chi va Rho birinchi harflari "Masih"). O'sha paytdagi nasroniylik izdoshlarini aniqlash uchun o'ylab topilgan baliq maxfiy belgi sifatida ishlatilgan. Buni Rim yer osti yo'llari devorlarida, zargarlik

buyumlarida, chiroqlarda, vazalarda yoki har qanday uy buyumlarida ko'rish mumkin bo'lgan.



Masih PX monogramiyasi<sup>2</sup>

Baliq 2000 yil oldin nasroniylikning eng qadimgi ramzlaridan biri hisoblanadi. Ko'p xudolarga ishongan Rimliklarning hukmronligi davrida o'zini nasroniy deb atash taqiqlangan va hayot uchun xavfli vaziyat edi, shuning uchun Isoning izdoshlari bir-birlarini aniqlash uchun maxfiy kodni ixtiro qildilar. Baliqning tanlanganiga sabab, I CH Th Y S yunoncha baliq degan ma'noni anglatadi va besh harfdan iborat har bir harf Masih bilan bog'liq so'zni ifodalaydi. 5-asrga kelibgina xoch xristianlikning asosiy ramzi sifatida kiritildi. Xoch bir vaqtning o'zida Isoning qurbonlik o'limini va o'limdan tirilishini anglatadi. Xoch turli shakllarda keladi, masalan, lotin xochi, yunon xochi, kelt xochi ularning har biri o'ziga xos tarixiy va madaniy ahamiyatga ega. Ilk masihiylar quvg'inlardan qochish uchun xochni boshqa belgilar bilan birlashtirib, turli xil yashirin usullarda foydalanganlar. Vaqt o'tishi bilan u qurbonlik va qutqarilish ramzi bo'lgan ishonchning taniqli timsoliga aylandi.

Taxminan 2500 yil avval Hindiston yoki hozirgi kunda Nepal va Hindiston atrofidagi hududda vujudga kelgan Buddaviylikda esa sakkizta muqaddas ramz bor – ular esa odatda quyidagicha tartibda sanab o'tiladi:

1. Oq soyabon
2. Juft oldin baliq
3. Xazina idish
4. Lotus guli
5. O'ng tomonga aylanuvchi oq chig'anoq
6. Tugamas tugun yoki “ baxtli naqsh”
7. G'alaba bayrog'i
8. Oltin g'ildirak

Dastlab bu sakkizta muborak ramz Hindistonda qirol taxtga o'tirganda unda hadya qilinadigan sovg'alar yig'indisini tashkil qilgan. Jaynizm ham ushbu ramzlarning o'ziga xos sakkizlik ro'yhati bo'lib, ehtimol Buddaviylar ro'yhatidan biroz avvalroq paydo bo'lgan. Ularning ro'yhati esa quyidagicha:

1. Xazina idishi
2. Suv idishi
3. Juft oldin baliq
4. Svastika
5. Tuganmas tugun
6. Soch tolasi
7. Ko'zgu
8. Taxt

Nepaldagi Nevar buddistlarining ro'yhatida esa Oltin g'ildirak o'rniga juft qamchi ishlatiladi va odatda bu sakkizta ramz gumbazsimon kompozitsiyada tasvirlanadi.

Buddaviy e'tiqodiga ko'ra, bu sakkizta omad va farovonlik ramzlari ilohlar tomonidan Shakyamuni<sup>3</sup> Buddaga u ma'rifatga erishganida taqdim etilgan sovg'alardir. Dastlab iloh Brahma paydo bo'ldi va ming tutquchli g'ildirakni Buddaga topshiradi. Bu “ dharma<sup>4</sup>

g'ildiragini aylantirish" orqali Buddaning ta'lim berishini so'rash ramzi edi. Keyin esa osmon ilohi Indra paydo bo'ldi va o'zining oq chig'anoq burg'isini taqdim etadi. Bu esa "dharma haqiqatini e'lon qilish" ramzi edi. Tibet suratlarida 4 yuzli sariq rangli Brahma va oq yuzli Indra Buddaning taxti oldida tiz cho'kib, unga oltin g'ildirak va oq chig'anoqni topshirayotgan holda ko'rish mumkin. Yer ma'budagi Sthavara Buddaning ma'rifatiga guvohlik bergan bo'lib, abadiy hayot ne'mati bilan to'ldirilgan oltin vaza hadya qiladi.

Ilk hind Buddizmida, Buddaning tasviri bevosita tasvirlanmagan, ya'ni ramziy bo'lgan. U odatda soyabon ostidagi bo'sh taxt va Bodhi daraxti orqali yoki muqaddas izlar (oyoq izlari) shaklida tasvirlangan. Bu oyoq izlari Buddaning ilohiyligining belgisi sifatida turli muborak ramzlarni o'z ichiga olgan:

1. G'alaba bayrog'i
2. Sher taxti
3. Uch tishli nayza ( trishula)
4. Uch qimmatbaho tosh
5. Abadiy tugun
6. Svastika
7. Chig'anoq
8. Juft baliq

Ammo eng keng tarqalgan va muhim ramzlar bu lotus guli va g'ildirak bo'lgan. Ilk Vajrayana Buddizmida bu sakkizta ramz har birini ifodalovchi sakkizta ma'budaga aylantirilgan. Har bir ma'buda o'ziga tegishli ramzni o'zining belgisi sifatida ko'tarib yuradi.

Soyabon – Hindistonda qadimdan qirolik va himoya ramzi sifatida tanilgan an'anaviy belgi hisoblanadi. Uning soyasi tropik quyoshning qizdiruvchi haroratidan saqlaydi, va bu salqinlik azob, istak, to'siqlar, kasalliklar va zararli kuchlardan himoya qilishning ramziy ko'rinishi hisoblanadi. Soyabon bos ustiga tutib yurilgani sababli, u tabiiy ravishda hurmat va ehtirom timsoli hisoblanadi, shuning uchun ham u ilk buddaviy san'atda muhim anikonik( qiyofasiz) ramzga aylangan. Buddaning tasvirlari ko'pincha boshining ustida murakkab va ulkan oq soyabon bilan tasvirlanadi. Bu "katta soyabon" keyinchalik Vajrayana buddizmida xudo sifatida tanilgan va Sitatapatra deb nomlangan. Sitatapatra, ya'ni "Oq Soyabon" Vajrayana ma'budlari orasida eng murakkablaridan biri bo'lib, u mingta qo'l, oyoq, boshga ega deb tasvirlanadi. Bu ma'budning ikki qo'lli shakli ko'pincha osoyishta tarzda Buddaning ustidan oq soyabon ushlab turgan holda tasvirlanadi.

Oltin baliqlar esa baxt va o'z-o'zidan sodir bo'ladigan erkinlik timsolidir, chunki ular suvda erkin harakatlanadi. Undan tashqari serhosillik va mo'llikni bildiradi, chunki baliqlar tez ko'payadi. Shuningdek ular ijtimoiy mavqe cheklovlaridan ozodlikni anglatadi, chunki turli baliq guruhlari bir- birlari bilan bemalol aralashadi. Xitoy Buddizmida esa juft baliqlar sadoqatni va shu bilan birga moddiy farovonlikni anglatadi chunki "Yu" so'zi ham "baliq" ham "katta boylik" degan ma'noni anglatadi.

Oltin ko'za esa an'anaviy hindcha loyli suv qudug'i asosida yaratilgan, asosan boylik hudolari Jambhala, Vaishravana<sup>5</sup> va Vasudhara<sup>6</sup> ramzidir; u ko'pincha ularning oyoqlari

ostida tasvirlanadi. Tibetliklar tasviridagi odatiy oltin ko'za nafis lotus barglari bilan bezatilgan naqshlari ham bor. Ko'zaning bir chetida bitta tilak ro'yobga chiqaruvchi tosh yoki uchta qimmatbaho tosh qo'yilgan bo'lib, ular Buddha, Dharma va Sangha<sup>7</sup> ramzidir. Muhrlangan oltin ko'zalar muqaddas joylarga- tog' yo'llari, ziyoratgohlar, buloqlar yoki daryolar kabi geomantic nuqtalarga joylashtiriladi yoki ko'miladi. Ularning vazifasi – atrof-muhitga mo'l-ko'lchilik olib kelish va bu joylarda yashovchi mahalliy ruhlarni tinchlantirishdan iborat. Lotus(Nilufar) guli qorong'u va loyqa suvli joydan o'sib chiqqan bo'lsa-da, undan ifloslanmagan holda o'sadi va Buddaviylikda poklik hamda dunyoviy lazzatlardan voz kechishni bildiruvchi ramz hisoblanadi. Vedik quyosh xudosi Surya har ikki qo'lida lotush ushlab turadi – bu quyoshning osmon bo'ylab harakatlanishini bildiradi. Buddha lotuslari 4, 8, 16, 24, 64, 100 yoki 1000ta bargli sifatida tasvirlanadi. Bu sonlar hind an'anasiga ko'ra –tananing ichki energiya markazlari- chakra va mandala elementlariga ramziy mos keladi. Buddaning 32 ta asosiy belgilaridan biri- uning chig'anoqqa o'xshash chuqur va jarangdor ovozi, bu ovoz o'n yo'nalishda yangraydi.

Buddizmдagi muqaddas sakkizta ramzlardan biri bo'lgan oq chig'anoq odatda vertical holatda tasvirlanadi, pastki qismidan ipak lenta o'tkazilgan bo'ladi. Qo'lga olinadigan ramz sifatida chig'anoq nutq orqali Buddha ta'limotini e'lon qilishni bildiradi va u odatda ilohlarning chap “donishmandlik” qo'lida turadi.

Buddaning ongini ifodolovchi ramz sifatida abadiy tugun esa- Buddaning cheksiz donishmandligi va rahm- shafqatini anglatadi. Buddha ta'limotining ramzi sifatida bu tugun “o'zaro bog'liqlikning o'n ikki halqasi”ni, ya'ni aylanma hayot haqiqatining uzluksizligini bildiradi.( Buddizmда xudolar va hatto odamlar ham qayta-qayta tug'ilishga ishonishadi).

Rivoyatlarga ko'ra Buddha to'rtta Mara ( yozuvliklar) bilan jang qilgan va g'olib bo'lgan, g'alabasining ramzi sifatida esa Kamadevaning timsoli bo'lgan timsoh boshi tasvirlangan bayroqni qabul qildilar. Tibet an'anasiga ko'ra g'alaba bayrog'ining o'n bir xil shakli sanab o'tiladi va ularning har biri ma'lum bir yovuzlikni yengishning o'ziga xos usulini ifodalaydi. Bayroqning silindrsimon tanasi ustida bir-birining ustiga yopishgan ko'p rangli ipak pardalar va taqinchoqlar osilgan bo'ladi. Asosiy qismida esa hilpirab turgan ipak mato va lenta bilan bezatiladi. Silindrning yuqori qismi ko'pincha yo'lbars terisi tasviri bilan bezatiladi, bu Buddaning barcha g'azab va tajovuzlarni yengganini bildiradi. G'ildirak esa Hindiston tarixidagi qadimiy quyosh ramzlaridan bo'lib, u hokimiyat, himoya va yaratuvchanlikni ifodalaydi. Buddha dini esa Chakvartinning( g'ildirakni aylantiruvchi) bosh ramzi sifatida g'ildirakni qabul qildi va Buddaning ta'limotlari dharma g'ildiragi bilan uyg'unlashtirildi. Dharma g'ildiragining tibetcha atamasi “ O'zgarish g'ildiragi” ma'nosini anglatadi. G'ildirakning tez aylanishi Buddha ta'limotida ochib berilgan ruhiy o'zgarishlarning tezkorligini ifodalaydi. G'ildirakning uch asosiy qismi- markazi, tutqichi va gardishi- Buddha ta'limotining uch jihatini ifodalaydi: Axloq, donolik va diqqat.

Markaziy qism axloqiy intizomni bildiradi, u ongni markazlashtirib, mustahkamlaydi. O'tkir tishlari donolikni, ya'ni johillikni yorituvchi farqlovchi idrokni bildiradi. Gardish esa diqqatni anglatadi, u g'ildirakning harakatini ham o'rab, ham ta'minlab turadi. Ming tishli

g'ildirak quyosh nurlariga o'xshab tarqaladigan Buddalarning minglab faoliyat va ta'limotlarini ifodalaydi. Sakkiz tishli g'ildirak esa Buddaning Sakkiz Qadamli Oliy Yo'lini va bu ta'limotlarning sakkiz yo'nalishga yoyilishini bildiradi.

Ramzlar insoniyat madaniyatining umumiy tili hisoblanadi. Ular orqali turli davr va xalqlar o'z e'tiqodini, orzu-umidini va dunyoqarashini ifodalab kelgan. Yarim oy va yulduz, xoch, lotus yoki g'ildirak singari belgilar tashqi shakli bilan farq qilsa-da, ularning mohiyati — nur, najot, yangilanish va ma'naviy poklanish g'oyalarida uyg'unlashadi.

Islomdagi yarim oy yangi hayot bosqichini va Ramazon oyining boshlanishini anglatadi, xristianlikdagi xoch insoniyat najoti va fidoyilik timsoli sifatida muqaddas sanaladi. Buddaviylikdagi sakkizta ramz esa ruhiy uyg'onish va ezgulik sari yo'lni ko'rsatadi.

Zamonaviy davrda diniy ramzlar mafaqat e'tiqod belgisi, balki turizmning muhim omillaridan biri sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Diniy timsollar o'ziga xalqlarning, millatlarning madaniy merosi, tarixiy qadriyatlar va san'atini mujassam etgani sababli ko'plab sayyohlarni o'ziga jalb etmoqda. Bugungi kunda diniy va madaniy turizm yo'nalishlari dunyo miqyosida eng faol rivojlanayotgan sohalardan biridir.

Islom, Nasroniylik va Buddaviylik dinlariga mansub ko'plab muqaddas maskanlar, ibodatxonalar va hatto muzeylarda bu ramzlar keng qo'llaniladi. Masalan, Istanbuldagi Ayasofiya, Quddusdagi Masjid al-Aqso, Vatikandagi Avliyo Pyotr sobori yoki Nepaldagi Bodhnat stupasi- barchasi diniy ramzlar bilan bezatilgan tarixiy joylar sifatida sayyohlarni o'ziga jalb qiladi. Bu kabi yodgorliklar nafaqat diniy ahamiyatga ega, balki madaniy turizm ham katta ro'l o'ynaydi. Undan tashqari, Agra shahrida joylashgan yetti mo'jizadan biri bo'lgan Toj Mahalda yarim oy ramzini ko'rish mumkin, shuningdek, Dehlidagi Bahai Lotus ibodatxonasi lotus guli shaklida qurilgan bo'lib dunyodagi eng taniqli diniy inshootlardan biridir. U 27ta marmar "barg"lardan iborat bo'lib, lotusning ochilgan holatini ifodalaydi. Shu joyda aytib o'tish joizki, Bahai dini – barcha dinlarning birligini targ'ib qiluvchi e'tiqod bo'lib, lotus nafaqat diniy balki an'anaviy ramzga ham ega ekanligini bildiradi.

Demak, dinlar o'rtasidagi tashqi belgilar turlicha bo'lsa-da, ularning ichki mazmuni umumiy qadriyatlarga — insonni yaxshilik, poklik va ma'naviy yuksalishga undashga xizmat qiladi. Shu bois, diniy ramzlarni o'rganish nafaqat tarixiy yoki estetik jihatdan, balki insoniyatning ruhiy birligiga doir chuqur falsafiy ahamiyat kasb etadi.

Diniy ramzlar insoniyat madaniy merosining muhim qismi bo'lib, ular turli xalqlarning e'tiqodi va qadriyatlarini ifodalaydi. Bugungi kunda bu ramzlar faqat diniy belgigina emas, balki turizmning rivojlanishida ham muhim o'rin tutmoqda. Yarim oy, xoch yoki lotus kabi timsollar insonlarni ma'naviyat, poklik va ezgulikka chorlaydi. Shu sababli diniy ramzlarni o'rganish va ularni turizm yo'nalishida targ'ib etish madaniy aloqalarni mustahkamlash va tinchlikni asrashga xizmat qiladi.

Ikonografiya (yunoncha eikon — "tasvir", graphein — "yozmoq, tasvirlamoq") — bu san'at asarlarida yoki diniy tasvirlarda ishlatilgan ramzlar, belgilar va ularning ma'nosini o'rganadigan fan sohasi.

Monogramiya (yunoncha monos — “bitta”, gramma — “harf”) — bu ikki yoki undan ortiq harflarning birlashtirilgan holda yozilgan belgisi, ya’ni harflardan tuzilgan ramziy tasvirdir.

Shakyamuni (sanskritcha Śākyamuni, ya’ni “Shakya qabilasining donoshi”) — bu Siddhartha Gautama Buddaning diniy unvonidir. U Budda ta’limotining asoschisi, miloddan avvalgi VI–V asrlarda yashagan hind faylasufi va ruhoniidir.

Dharma (sanskritcha: धर्म, dharma — “qo’llab turuvchi”, “tartib”, “qonun”) — bu koinotdagi tartib, axloqiy qonun va insonning to’g’ri yo’lini ifodalovchi tushunchadir. U Hind falsafasi, Buddaviylik, Jaynizm va Hinduizm dinlarida asosiy o’rin tutadi.

Vaishravana (sanskritcha: वैश्रवण, Vaiśravaṇa) — bu Buddaviylik, Hinduizm va boshqa Sharq dinlarida boylik, farovonlik va himoya xudosi hisoblanadi. U to’rt samoviy qo’riqchi (lokapāla) orasida shimoliy yo’nalishni qo’riqlovchi xudo sifatida e’tirof etiladi.

asudhara (sanskritcha: वसुधारा, Vasudhārā) — bu Buddaviylikdagi farovonlik, mo’l-ko’llik, hosildorlik va boylik ma’budasi. U ayol Budda yoki bodhisattva sifatida e’tirof etiladi va rahm-shafqat bilan birga moddiy baraka timsoli hisoblanadi.

Sangha (sanskritcha: संघ, Pali: saṅgha) — bu Budda ta’limotiga ergashuvchi rohiblar (bhikkhular), rohibalar (bhikkhunilar) va oddiy dindor izdoshlar jamoasini anglatadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI:**

- 1.The handbook of tibetan buddhist symbols.
- 2.Principal Symbols of World Religions by Swami Harshananda.